



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 1

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

Mexmonov Kambarriddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farhod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Kutpiddinov Xusniddin Muxiddinovich

ETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNI JOYLASHTIRISH SHAKLLARINING HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....5

2. Авлиякулова Матлуба Авазовна

КОРПОРАТИВ-ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ.....13

3. Раҳимкулова Лола Улуғмуродовна

ИШ ТАШЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ МУНОСАБАТ СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ. ҚОНУНЧИЛИҚДА НАЗАРДА ТУТИЛГАН КАФОЛАТЛАР.....21

4. Karimova Nigina Botirjon qizi

YO‘QOLIB KETISH XAVFI OSTIDAGI YOYVOYI FAUNA VA FLORA TURLARINI MUHOFAZA QILISHDA VASHINGTON (CITES) KONVENSIYASINING HUQUQIY ANAMIYATI.....28

5. Xakberdiyev Nurali Salaxiddinovich

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING PROFESSIONAL FAOLIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR.....35

6. Turayev Jo‘rabek Shonazarovich

JORIY SHAROITLARDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH FAOLIYATINING ILMIIY-NAZARIY TAVSIFI.....43

7. Hojiyev Nosirjon Komilovich

YO‘L HARAKATI VA TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH QOIDALARINI BUZGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....50

8. Рузиев Маъруфжон Муртазаевич

ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИНОИЙ ЖАЗОЛАРНИНГ ЛИБЕРАЛЛАШУВИ – ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ.....58

9. Orakbayev Erpolat Temirbay ugli

TERGOV SUDYASI INSTITUTI: SHAKLLANISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....65

10. Husanboev Sardor Abdukarimovich


YOSHLAR O‘RTASIDA EKSTREMISTIK TAHDIDLARNING PROFILAKTIK CHORATADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....72

11. Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o‘g‘li

KRIMINOLOGIK SIGNAL TIZIMI (REAL-TIME ALERTS): SUN‘IY INTELLEKT ASOSIDA JINOYAT XAVFINI OLDINDAN ANIQLASH VA PROFILAKTIKA QILISH MODELII.....82

12. Курбонов Давлат Равшанович

ШАХС ОЗОДЛИГИГА ҚАРШИ ЖИНОЯТ СОДИР ЭТГАН ШАХСНИНГ ИЖТИМОИЙ-БИОЛОГИК ТАВСИФИ.....87




12.00.09-УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

Orakbayev Erpolat Temirbay uli,
Toshkent davlat yuridik universiteti jinoyat protsessual
huquqi shoʻbasi (kafedrası) doktoranti,
E-mail: oraqbaever@gmail.com

**TERGOV SUDYASI INSTITUTI: SHAKLLANISH TARIXI VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

For citation: Orakbaev Erpolat Temirbay uli. INSTITUTE OF INVESTIGATIVE JUDGE: HISTORY OF FORMATION AND PROSPECTS OF DEVELOPMENT. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18509365>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tergov sudyasi institutining shakllanishi va rivojlanish tarixi tahlil qilinadi. Muallif tomonidan Fransiya, Germaniya, Rossiya va Oʻzbekiston tajribasi asosida tergov sudyasining huquqiy tabiati, vakolatlari, xalqaro standartlarga muvofiqligi oʻrganilgan. Huquqshunos olimlarning fikrlari ilmiy bahs doirasida tahlil qilinib, tergov sudyasi institutining mustaqilligi, samaradorligi va rivojlanish istiqbollari yuzasidan muallifning nazariy yondashuvi bayon etilgan. Maqola tergov sudyasi institutini takomillashtirish boʻyicha aniq takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit soʻzlar: Tergov sudyasi, jinoyat-protsessual huquq, sud nazorati, inson huquqlari, vakolatlar, xalqaro tajriba, sud mustaqilligi, Oʻzbekiston, tergov, protsessual islohotlar.

Оракбаев Ерполат Темирбай улы,
Докторант кафедры уголовно-процессуального права
Ташкентского государственного юридического университета.
E-mail: oraqbaever@gmail.com

**ИНСТИТУТ СЛЕДСТВЕННОГО СУДЬИ: ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ**

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются история формирования и развития института следственного судьи. На основе опыта Франции, Германии, России и Узбекистана автором исследуются правовая природа, полномочия следственного судьи и их соответствие международным стандартам. Мнения ученых-юристов рассматриваются в рамках научной дискуссии, а также излагается авторский теоретический подход к вопросам независимости, эффективности и перспектив развития института следственного судьи. Статья завершается конкретными предложениями по совершенствованию института следственного судьи.

Ключевые слова: следственный судья, уголовно-процессуальное право, судебный контроль, права человека, полномочия, международный опыт, независимость суда, Узбекистан, расследование, процессуальные реформы.

Orakbaev Erpolat Temirbay uli,

Doctoral student at the Department of Criminal Procedural Law
of Tashkent State University of Law.

E-mail: oraqbaever@gmail.com

INSTITUTE OF INVESTIGATIVE JUDGE: HISTORY OF FORMATION AND PROSPECTS OF DEVELOPMENT

ANNOTATION

This article analyzes the history of the formation and development of the institute of investigative judge. The author, based on the experience of France, Germany, Russia and Uzbekistan, studied the legal nature, powers, and compliance with international standards of the investigative judge. The opinions of legal scholars are analyzed within the framework of a scientific debate, and the author's theoretical approach to the independence, effectiveness and development prospects of the institute of investigative judge is outlined. The article concludes with specific proposals for improving the institute of investigative judge.

Keywords: Investigative judge, criminal procedural law, judicial supervision, human rights, powers, international experience, judicial independence, Uzbekistan, investigation, procedural reforms.

Hozirgi davrda inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta'minlash huquqiy davlat barpo etishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash va odil sudlovga erishish yo'lida tergov sudyasi instituti muhim o'rin tutadi. Ushbu institutning shakllanishi va rivojlanishi sud-huquq tizimining demokratik qadriyatlariga asoslanganligini ko'rsatadi.

Tergov sudyasi institutining joriy etilishi, avvalo, jinoyat protsessida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish va tergov organlari faoliyatiga sud nazoratni ta'minlash zaruratidan kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida tergov sudyasi instituti 2025 yildan rasman joriy etilgan bo'lib, bugungi kunda u huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini muvozanatli nazorat qilish, inson huquqlarining buzilishini oldini olish va tergov jarayonining shaffofligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu maqolada tergov sudyasi institutining shakllanish tarixi, rivojlanish bosqichlari, huquqiy mohiyati va xalqaro tajriba asosida baholashga harakat qilinadi. Turli huquqshunos olimlarning ushbu institutga bergan ta'riflari va baholari tahlil qilinadi hamda muallif tomonidan nazariy-huquqiy nuqtai nazardan ilmiy munozara yuritiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi – tergov sudyasi institutining paydo bo'lishi va rivojlanishiga oid turli yondashuvlarni o'rganish, uning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish hamda O'zbekiston qonunchiligida ushbu institutni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar berishdan iborat. Shu bilan birga, tergov sudyasining vakolatlari, uning jinoyat-protsessual islohotlardagi o'rni va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari yuzasidan ilmiy bahs yuritiladi.

Tergov sudyasi instituti jinoiy protsessning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy vazifasi tergov organlari faoliyati ustidan sud nazoratni amalga oshirishdan iboratdir. Bu institut tarixan inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash zarurati natijasida vujudga kelgan.

Huquqiy davlat konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishida jinoyat protsessi ustidan mustaqil nazorat o'rnatish masalasi dolzarb bo'lib kelgan. Dastlabki huquqiy tizimlarda tergov jarayoni butunlay ijroiya hokimiyati vakillari – ya'ni prokurorlar va tergovchilar tomonidan olib borilgan. Bu esa sudlov tizimining bevosita ishtirokisiz, ayrim hollarda, ayblanuvchilarning huquqlarining buzilishiga olib kelgan.

Xususan, o'rta asrlarda Yevropa davlatlarida inkvizitsiya tartiboti mavjud bo'lib, tergov va sud jarayonlari o'zaro birlashib ketgan edi. Bu holat sud-huquq amaliyotining ob'ektiv va adolatli

bo‘lishiga putur yetkazgan. XVIII asrga kelib, yuridik fan olimlari, xususan, fransuz huquqshunosi Sharl de Monteske va italiyalik yuridik mutaxassis Chezare Bekkariya huquqiy davlat tamoyillariga asoslangan sud nazorati zarurligi haqida o‘z ta’riflarini ilgari surganlar.

Monteske o‘zining “Qonunlar ruhi to‘g‘risida” (1748) asarida hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini ilgari surib, ijro va sud hokimiyatlari o‘rtasida keskin chegaralashni taklif qilgan [1]. Bekkariya esa o‘zining “Jinoyatlar va jazolar” (1764) asarida tergov jarayonida shaxsning huquqlarini himoya qilish uchun sud nazorati tizimi zarurligini asoslab bergan[2]. Ushbu g‘oyalar keyinchalik zamonaviy tergov sudyasi institutining shakllanishiga zamin yaratgan.

Hozirgi kunda tergov sudyasi instituti Yevropa va AQShda turli huquqiy tizimlarga qarab shakllangan.

Yevropa kontinental huquq tizimiga mansub davlatlarda tergov sudyasi instituti ancha rivojlangan. Masalan, Fransiyada tergov sudyasi XIX asrning o‘rtalaridan boshlab joriy etilgan bo‘lib, u tergov harakatlarining qonuniyligini ta‘minlash va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Germaniyada ham tergov sudyalari jinoyat protsessida faol ishtirok etib, gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilarning huquqlarini ta‘minlash borasida muhim rol o‘ynaydi. AQSh huquqiy tizimida tergov sudyasi instituti Yevropadagi kabi rivojlanmagan bo‘lsa-da, u yerda Habeas Corpus tamoyili asosida sudlar tergov jarayonining qonuniyligini ta‘minlash uchun turli vositalardan foydalanadi.

Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligida inson huquqlarini ta‘minlash va tergov jarayonining shaffofligini oshirish maqsadida islohotlarni amalga oshirdi. Shu doirada 2025 yilda tergov sudyasi instituti joriy etildi[3]. Bu jarayonda O‘zbekiston Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va boshqa MDH davlatlarining tajribasini inobatga oldi. Rossiyada tergov sudyasi instituti 2002-yilda joriy etilgan bo‘lib, u tergov harakatlarini sanktsiyalash va protsessual huquqbuzarliklarni oldini olishga xizmat qiladi. Qozog‘istonda esa 2015-yildan boshlab tergov sudyasi faoliyat yurita boshlagan va uning asosiy vazifasi tergov organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning qonuniyligini tekshirishdir. O‘zbekistonda esa tergov sudyasi institutining joriy etilishi fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Biroq, bu institut hali ham rivojlanish bosqichida bo‘lib, uni takomillashtirish zarurati mavjud.

Tergov sudyasi instituti turli huquqiy tizimlarda turlicha shakllangan bo‘lsa-da, uning asosiy vazifasi jinoyat protsessining boshlang‘ich bosqichlarida sud nazoratini ta‘minlashdan iboratdir. O‘zbekistonda tergov sudyasining joriy etilishi bu institutsional tuzilmaning mustahkamlanishi va jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish yo‘lidagi muhim islohotlardan biri bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida 2026 yildan tergov sudyalari sanksiya va majburlov choralarini o‘zgartirish hamda bekor qilish vakolatlarini berish haqida e‘lon qildi[4].

Amaldagi qonunchilikga ko‘ra bunday vakolat tergov sudyalari mavjud emas, ya‘ni jinoyat-protsessual kodeksiga binoan qo‘llanilgan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi shaxsni bundan keyin qamoqda saqlash yoki uning uy qamog‘ida bo‘lishi uchun asoslar mavjud bo‘lmaganda prokuror tomonidan, shuningdek prokurorning roziligi bilan surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan ehtiyot choralarini to‘g‘risida qaror chiqargan sudni albatta xabardor etgan holda bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin. Bundan tashqari qo‘llanilgan garov tarzidagi ehtiyot chorasi uni bundan buyon qo‘llash uchun asoslar mavjud bo‘lmaganda, xuddi shuningdek ish yuritish tugatilgan taqdirda, mazkur ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida qaror chiqargan sud albatta xabardor etilgan holda prokuror tomonidan, shuningdek prokurorning roziligi bilan surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin.

Tergov sudyalari sanksiya va majburlov choralarini o‘zgartirish hamda bekor qilish vakolatlarini berish o‘z navbatida fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va odil sudlovni amalga oshirishda yangi qadam bo‘ldi.

Dunyoda uchta asosiy huquqiy tizim mavjud bo‘lib, ular tergov sudyasi institutiga turlicha yondashadi:

Kontinental huquq tizimi (Fransiya, Germaniya, Rossiya va boshqalar). Bu tizimda tergov sudyasi faol ishtirok etadi. U jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergov jarayonini nazorat qiladi,

muhim tergov harakatlariga ruxsat beradi va gumon qilinuvchilar huquqlarining ta'minlanishini kafolatlaydi.

Anglo-sakson huquq tizimi (AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va boshqalar). Bu tizimda tergov sudyasi an'anaviy tushunchada mavjud emas. Sudlar habeas corpus tamoyiliga asoslangan holda shaxslarni noqonuniy hibsga olish yoki protsessual qoidabuzarliklarga qarshi turuvchi organ sifatida faoliyat yuritadi.

Aralash huquqiy tizimlar (O'zbekiston, Qozog'iston, Belarus va boshqalar). Ushbu tizimlarda tergov sudyasi institutining huquqiy maqomi huquqiy islohotlar jarayonida shakllanmoqda.

Qozog'iston Respublikasi jinoyat protsessida tergov sudyasi instituti 2015 yilda joriy etilgan. Qozog'iston Respublikasi jinoyat protsessual qonunchiligiga muvofiq, uning vakolatlariga ishni sudga qadar yuritish bosqichida shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshirish belgilangan. Qozog'iston Respublikasida tergov sudyasi jinoyat ishi

bo'yicha o'z tashabbusi bilan harakat qilish va qaror qabul qilishga haqli emas. U faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, tergovga aloqador shaxslardan va advokat tomonidan kelib tushgan materiallar, murojaatlar, iltimosnomalarni ko'rib chiqadi va ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qiladi. Mamlakat jinoyat protsessual qonunchiligi tergov sudyasining jinoyat ishi mohiyati bo'yicha ko'rishda ishtirok etishini bevosita taqiqlashni belgilaydi. Ushbu institut joriy etilganda Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga tergov sudyalari 12 turdagi tergov harakatlarini amalga oshirish belgilangan edi. 2016 yildan tergov sudyalarning vakolatlari yanada kengaytirildi. Shuningdek, Qozog'istonning barcha viloyat markazlarida, shuningdek, Ostona, Olmaota va Turkiston shaharlarida 2018-yil 7-apreldan o'z faoliyatini boshlagan ixtisoslashtirilgan tumanlararo tergov sudyalari korpusi tashkil etildi. Ixtisoslashtirilgan tergov sudlari umumiy yurisdiksiya sudlaridan mustaqil sud hokimiyatining mustaqil organi sifatida tashkil etildi. Bu ularga jinoyat ishlari bo'yicha sudgacha bo'lgan ish yuritishda faqat sud nazoratiga ixtisoslashish imkonini berdi. Shunday qilib, advokatlarning vakolatlari va maqomi sezilarli darajada oshdi. Himoya va ayblov o'rtasida o'zaro ma'lumot almashish (to'plangan dalillar) instituti joriy etildi. Yuridik shaxslar tomonidan advokatlarning so'rovlarini bajarishning aniq muddatlari belgilandi.

Advokat tomonidan o'tkazilgan so'rovnomani ish materiallariga ilova qilish va jinoyat protsessini yurituvchi organ tomonidan o'rganishdan so'ng dalil maqomiga ega bo'lish mexanizmi belgilandi. Qozog'istonda tergov sudyalarning ahamiyati va samaradorligi yildan yilga ortib bormoqda. 2019-yilda tergov sudyalari tomonidan 90 mingdan ortiq ish ko'rib chiqilgan (2018-yilga nisbatan 13 foizga ko'p). Tergov sudyalari tergov organlaridan gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilarni hibsga olish uchun ruxsat olishni ko'proq rad qila boshladilar. 2018-yilga nisbatan hibsga olinganlar soni 4,2 foizga kamaygan. Uy qamog'i va garovga qo'yish holatlari ko'paygan. 2019-yilda tergov sudyalari tomonidan mol-mulkni xatlash to'g'risidagi arizalarning 26 foizi qo'llab-quvvatlanmadi, tergov organlari, surishtiruv va prokurorlarning xatti-harakatlari ustidan berilgan shikoyatlarning 42 foizi qanoatlantirildi[5]. Tergov sudyasining shaxsiy qaroriga binoan prokuratura organlarining mansabdor shaxslari javobgarlikka tortilishi amaliyoti shakllangan. Natijada tergov sudyalari faoliyati orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga jiddiy tuzatishlar kiritildi, jumladan, dastlabki tergov ustidan prokuror nazorati kuchaytirildi. Ushbu institutning yutuqli tomonlaridan biri jinoyat protsessida ish yuritishni sudgacha bo'lgan bosqichida noqonuniy ravishda olingan dalillarni istisno qilish to'g'risida ariza berishi imkoniyati mavjudligi noqonuniy ravishda olingan dalillarni maqbul dalil sifatida e'tirof etishning oldini oladi. Huquqshunos olim M.A. Makarov tergov sudyasining huquqiy maqomini belgilashda protsessual harakatlarni amalga oshirish va protsessual qarorlar qabul qilish, shu jumladan, shaxslarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini olib borish masalalariga asosiy e'tiborni qarategan[6].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, tergov sudyasi quyidagi vakolatlarga ega: qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatgacha uzaytirish to'g'risidagi

iltimosnomani ko‘rib chiqish; pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; ayblanuvchining tibbiy muassasada bo‘lishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; murdani eksqumatsiya qilish haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; prokurorning guvoh va jabrlanuvchining (fuqaroviy da‘vogarning) ko‘rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to‘g‘risidagi iltimosnomalarini ko‘rib chiqish; tintuv o‘tkazish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish to‘g‘risidagi iltimosnomalarni ko‘rib chiqish; mol-mulkni xatlash to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish kiradi.

Tergov sudyasining vakolatlari xalqaro standartlarga qanchalik mos kelishini aniqlash uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi va boshqa xalqaro tashkilotlar hujjatlariga murojaat qilamiz. Masalan: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) – 9-moddada hech kim asossiz hibsga olinmasligi yoki sud qarorisiz ozodlikdan mahrum etilmasligi kerakligi qayd etilgan. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa konvensiyasi (1950) – 5-moddaga ko‘ra, har qanday shaxs hibsga olinganda yoki ozodlikdan mahrum etilganda, bu qaror sud tomonidan ko‘rib chiqilishi shart. Bu xalqaro standartlarga mos kelish, bundan tashqari sudlar faoliyati samaradorligini oshirish, ishni sudga qadar yuritishda taraflarning tengligi va tortishuvi prinsipini amalda ta‘minlash, shuningdek, tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilinishiga erishish maqsadida O‘zbekiston tergov sudyasi institutini joriy etgan va unga protsessual nazorat vakolatlarini bergan.

Tergov sudyasi instituti jinoyat-protsessual huquq tizimidagi nisbatan yangi hodisa bo‘lib, u turli huquqshunos olimlar tomonidan turlicha baholanadi. Ayrimlar uni inson huquqlarini ta‘minlash va tergov jarayonining shaffofligini oshirish vositasi sifatida ko‘rsatsa, boshqalar tergov sudyasining vakolatlari bo‘yicha bahs-munozaralar yuritib, uning mustaqilligi va samaradorligi masalasini ko‘taradilar.

Mamlakatimiz olimlaridan bir nechtasi ya‘ni D.M.Mirazov [7] tomonidan tergov sudyasi instituti atroflicha o‘rganilib, ushbu institut bo‘yicha o‘zining tahliliy fikrlarini bayon qilgan. Shuningdek, B.A.Saidov[8], S.A.Abdurqahhorov[9] va D.M.Chorievalar[10] ham o‘z tadqiqot ishlarida tergov sudyasi instituti haqida o‘z mulohazalarini ilgari surganlar.

Shu o‘rinda “Tergov sudyasi o‘zi kim, u qanday vazifalarni amalga oshiradi?,” degan savol tug‘ilishi tayin. Ushbu institut XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Fransiyada vujudga kelgan. Tergov sudyasi Fransiya, Belgiya, Gollandiya davlatlarida - dastlabki tergov organi vazifasini bajaradi, Germaniya va Avstriya kabi davlatlarda - sud surishtiruvchisi sifatida tergov harakatlarini o‘tkazadi, Latviyada esa faol ravishda sud nazoratini amalga oshiradi[11].

O.A.Glyanko tergov sudyasi jinoyat protsessining sudgacha bo‘lgan bosqichida tomonlarning tortishuviga xizmat qilishini ta‘kidlagan, shuningdek tergov sudyasining vakolatlarini quyidagi uch guruhga ajratgan:

- prosessual majburlov chorasini hamda shaxsning konstitusiyaviy huquqlariga daxl qiluvchi prosessual harakatlarni bajarishga ruxsat beruvchi vakolatlar;
- jinoyat protsessining borishi va yo‘nalishini belgilovchi, shuningdek asosiy huquqiy munosabatlarning paydo bo‘lishiga yoki tugatilishiga olib keladigan prosessual qarorlarning qonuniyligi hamda asosiligi ustidan sud nazoratini amalga oshiruvchi vakolatlar;
- ishni sudga qadar yuritish bosqichida dalillarni to‘plash va tekshirishga imkon beruvchi vakolatlar[12].

Bu ta‘riflar shuni ko‘rsatadiki, tergov sudyasi instituti huquqiy davlat tamoyillarini ta‘minlash uchun muhim bo‘lsa-da, uning real vakolatlari va samaradorligi bo‘yicha turli fikrlar mavjud.

Ba‘zi olimlar tergov sudyasi institutining sud hokimiyatidan ajratilishi yoki tergov jarayonida juda faol bo‘lishi uning mustaqilligiga salbiy ta‘sir qilishi mumkinligini ta‘kidlaydilar.

Bu borada bizningcha agar tergov sudyasi prokuratura va tergov organlari bilan juda yaqin ishlasa, u sud hokimiyatidan emas, balki ijro hokimiyatidan mustaqillikka ega bo‘lishi kerak. Biroq,

O‘zbekiston tajribasida tergov sudyasi sud tizimining bir qismi sifatida shakllantirilgan, bu esa uning mustaqilligini saqlab qolish uchun muhim omil bo‘lishi mumkin.

Boshqa bir bahs tergov sudyasining vakolatlari doirasi bilan bog‘liq. Masalan, Germaniyada tergov sudyasi faqatgina tergov jarayonining qonuniyligini tekshirish bilan shug‘ullansa, Rossiyada tergov sudyasi ayrim protsessual qarorlarni ham mustaqil qabul qilishi mumkin. Biroq biz shunga e‘tibor qaratmoqchimiz: agar tergov sudyasi vakolatlari haddan tashqari kengaytirilsa, u odatiy sud jarayonida prokuratura va himoya o‘rtasida bevosita hakamlik qiluvchi organga aylanib qolishi mumkin. Bu esa uning asl maqsadi – tergov jarayonida sud nazoratini amalga oshirish bilan zid kelishi mumkin.

Tergov sudyasi instituti bo‘yicha ilmiy bahslarni tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Tergov sudyasi mustaqil bo‘lishi kerak, ammo uning vakolatlari aniq chegaralangan bo‘lishi lozim. Agar tergov sudyasi ijro hokimiyati vakillariga bog‘liq bo‘lsa, u odil sudlovni ta‘minlay olmaydi. Shuning uchun u sud tizimining bir qismi sifatida qolishi zarur.

Vakolatlar muvozanati ta‘minlanishi kerak. Agar tergov sudyasiga haddan tashqari ko‘p vakolatlar berilsa, u prokuror yoki tergovchi rolini o‘z zimmasiga olib qo‘yishi mumkin. Aksincha, vakolatlari yetarli bo‘lmasa, u inson huquqlarini himoya qila olmaydi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Charles Louis de Secondat, Baron de Montesquieu. Complete Works, vol. 1 The Spirit of Laws. // URL: <https://oll.libertyfund.org/titles/montesquieu-complete-works-vol-1-the-spirit-of-laws>
2. Cesare Beccaria. Dei delitti e delle pene. // URL: https://books.google.co.uz/books/about/Dei_delitti_e_delle_pene.html?id=Qc2w2id9DXIC&redir_esc=y
3. “Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 10.06.2024 yildagi PF-89-son Farmoni (Decree No. PF-89 of 10.06.2024 "On measures to further strengthen guarantees for reliable protection of the rights and freedoms of the individual in search and investigation activities."). <https://lex.uz/ru/docs/-6964387>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan). <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
5. Kachalova O.V., Mergenova G.ZH. Sledstvennyye sudi: kazakhstanskiy opyt i rossiyskiye perspektivy [Investigative judges: Kazakh experience and Russian prospects]. Criminal Trial, 2020, April. Internet resource of the Supreme Court of the Republic of Kazakhstan. Available at: https://sud.gov.kz/rus/massmedia/sledstvennyye-sudi_kazahstanskiy-opyt-i-rossiyskie-perspektivy-okachalovagmergenova
6. Makarov M.A. Judicial control in criminal proceedings: theoretical and legal foundations. Doctoral dissertation. Kiev, 2018, p. 495.
7. Мирзатов Д.М. Даствлабкн тергов идоралари фаолияти устидан контроль ва назоратни такомиллаштиришнинг назарий, ташкилий ва процессуал жиҳатлари: Юрид. фан. док.(DSc) ... дисс. – Т.: Ўз. Рес. ИИБ Академияси, 2016. – Б.168-192 (Mirazov D.M. Theoretical, organizational and procedural aspects of improving control and supervision over the activities of primary investigation departments: Doctor of Law (DSc) ... dissertation. – Т.: Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2016. – P.168-192).
8. Саидов Б.А. Ишни судга қадар юрителишда шахсинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликлари таъминланишини такомиллаштириш: Юрид. фан. док.(DSc) ... дисс. – Т.: Ўз. Рес. ИИБ Академияси, 2020. – Б.223 (Saidov B.A. Improving the provision of constitutional rights and freedoms of a person in pre-trial proceedings: Doctor of Law (DSc) ... dissertation - Т.: Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2020. - P. 223.).

- 9.** Абдукаххоров С.А. Ишни судга қадар юритиш босқичида ҳимоя ҳуқуқини таъминлаш: Юрид. фан. док.(PhD) ... дис.. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ, 2023. – Б. 24. (Abdukakhkhorov S.A. Ensuring the right to defense at the stage of pre-trial proceedings: Doctor of Law (PhD) ... dissertation - Т.: Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2023. - P. 24.)
- 10.** Чориева Д.М. Ишни судга қадар юритишда ҳимоячи ҳуқуқларини кенгайтириш масалалари: Юрид. фан. док.(PhD) ... дис. автореф. – Т.: ТДЮИ, 2021. – Б. 24. (Choriyeva D.M. Issues of expanding the rights of a defense lawyer in pre-trial proceedings: Doctor of Law (PhD) ... dissertation author's abstract - Т.: TDUI, 2021. - P. 24)
- 11.** Милова И.Е. Следственный судья: возрождение института // Научная статья (Milova I.E. Investigative judge: revival of the institution // Scientific article) // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sledstvennyy-sudya-vozrozhdenie-instituta>
- 12.** Глянько О.А. Теоретико-правовая модель процессуального статуса следственного судьи: Автореф. Дисс.... канд. юрид. наук. - М., 2019. - С. 12–13 (Glyanko O.A. Theoretical and legal model of the procedural status of an investigating judge: Abstract of a Cand. Sci. (Law) Dissertation. - Moscow, 2019. - P. 12–13).

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000